TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

XUDOYKULOV ZARIFJON TURAKULOVICH

BUYUMLAR INTERNETI TIZIMIDA AXBOROTNI KRIPTOGRAFIK HIMOYALASH USULLARI VA ALGORITMLARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2025

UDK: 004.056.55

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor (DSc) on technical sciences

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

XUDOYKULOV ZARIFJON TURAKULOVICH

BUYUMLAR INTERNETI TIZIMIDA AXBOROTNI KRIPTOGRAFIK HIMOYALASH USULLARI VA ALGORITMLARI

05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/T982 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Ganiyev Salim Karimovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kerimov Kamil Fikratovich** texnika fanlari doktori, professor
	Jurayev Gayrat Umarovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Kuryazov Davlatyor Matyakubovich fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 20__-yil “__”-_____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, faks: (99871) 238-65-52, e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-65-44).

Dissertatsiya avtoreferati 20__-yil “___”-_____da tarqatildi.
(20__-yil “__”-_____dagi №___-raqamli reestr bayonnomasi).

B.Sh. Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

M.S. Saitkamolov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.Ya. Irgasheva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot kommunikatsiya infratuzilmalarida Buyumlar Interneti (Internet of Things, IoT) qurilmalarining tez o‘zlashtirilishi samaradorlikni oshirilishiga, operatsion xarajatlarni kamayishiga olib kelishi bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni ham keskin oshishiga sababchi bo‘lmoqda. “IoTforAll” media platformasining ma’lumotiga ko‘ra, IoT qurilmalariga nisbatan oyiga o‘rtacha 5400 ta hujum amalga oshirilib, muvaffaqiyatli hujumning narxi 330 000 dollardan yuqori bo‘lgan, 2025-yilda kiberjinoyatlardan ko‘riladigan zarar miqdori 10 trillion dollardan yuqori bo‘lishi kutilmoqda[1]. IoT qurilmalarning axborot kommunikatsiya infratuzilmalarida boshqa tizimlar bilan aloqa o‘rnatishi mumkinligi bois, ma’lumotlarni uzatishda va saqlashda xavfsizlikni ta’minlash muhim hisoblanadi. Shu sababli, bugungi kunda IoT qurilmalari uchun mos, ma’lumotlarni uzatishda va saqlashda xavfsizlikni ta’minlovchi himoya usullari va algoritmlarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda IoT muhitida axborot xavfsizligi muammolarini tadqiqlashga, tahdidlarni oldini oluvchi ishonchli himoya mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, cheklangan hisoblash va quvvat imkoniyatiga ega IoT qurilmalari uchun mo‘ljallangan, axborotning konfidensialligini, yaxlitligini, xabar manbasi autentifikatsiyasini ta’minlovchi kriptografik usul va algoritmlarni ishlab chiqish, mavjud algoritmlarni moslashtirish, kriptotahlil usullariga baholash hamda dasturiy va apparat ko‘rinishlarda amalga oshirishga qaratilgan tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar, tanlovlar (NIST LWC), loyihalar (CAESAR, eSTREAM) va standartlashtirish jarayonlari (ISO/IEC 29192) natijasida IoT qurilmalari uchun mo‘ljallangan xalqaro va milliy standart kriptografik algoritmlar, foydalanish uchun tavsiya etilgan kriptografik algoritmlar ishlab chiqildi, kriptotahlil usullariga baholandi va foydalanish uchun qabul qilindi.

Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida elektron hukumatni rivojlantirish, raqamli industriyani rivojlantirish, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, sanoat va qurilish sohalarini rivojlantirish, raqamli ta’limni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish sohasiga oid ko‘plab vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda[2]. Mazkur vazifalar ijrosini samarali tashkil etishda, jumladan, IoT qurilmalari yordamida aqqli shahar/uy tizimlarini ishlab chiqish, inson sog‘lig‘ini doimiy nazorat qilish, sanoat sohasida jarayonlarni avtomatlashtirish masalalariga joriy etishda yuzaga keladigan axborot xavfsizligi muammolarini oldini olish, kiberhujumlarga o‘z vaqtida javob berish,

[1] https://www.iotforall.com/iot-telecom-vulnerabilities

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05-oktabr 2020-yildagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

axborotni himoyalashning ishonchli mexanizmlarini ishlab chiqish va tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ-764-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 15-avgustdagi PQ-293-son “O‘zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2007-yil 3-apreldagi PQ-614-son “O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. IoT qurilmalari uchun mos simmetrik shifrlash, ochiq kalitli shifrlash, elektron raqamli imzo, xesh funksiya va psevdotasodifiy sonlar generatori algoritmlarini ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish va ularni zamonaviy kriptotahlil usullari yordamida baholashga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakli ilmiy markazlarida va oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan va olib borilmoqda. IoT qurilmalari uchun mos algoritmlarni tanlab olish bo‘yicha Yevropa ittifoqi tomonidan o‘tkazilgan eSTREAM loyihasi, xalqaro kriptologik tadqiqotlar jamiyati tomonidan o‘tkazilgan CAESAR loyihasi, Yaponiya elektron hukumat tizimi tomonidan o‘tkazilgan CRYPTREC loyihasi, AQSHning NIST instituti tomonidan o‘tkazilgan NIST LWC tanlovi hamda ISO/IEC 29192 seriyali standartlari mazkur sohada bajarilgan ishlarga misoldir.

IoT qurilmalarida ishlovchi kriptografik algoritmlarga nisbatan “yengil vaznli (lightweight)” sifati ishlatilib, bu algoritmlar ishlashida hisoblash va quvvat resurslarini kam talab etishi bilan xarakterlanadi. Yengil vaznli simmetrik kriptografik algoritmlarni yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning eng ilg‘or va yetakchi ilmiy tekshirish institutlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy o‘quv yurtlarida, shu jumladan NIST instituti (AQSh), Graz Texnologiya Universiteti (Austria), Infineon Technologies (Germany), Lamarr Security Research (Austria), Radboud Universiteti (Niderlandiya), NTT (Nippon Telegraph and Telephone) (Yaponiya), Ruhr University Bochum (Germaniya), Carnegie Mellon University (AQSh), Nanyang Texnologiya Universiteti (Singapur), Janubiy Federal Universitet (Rossiya Federatsiyasi) va respublikamizda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, “UNICON.UZ” Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi va “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasida olib borilmoqda.

Yengil vaznli kriptografiya bo‘yicha dunyoda faqat AQSH hukumati o‘zining standart (Ascon) algoritmiga ega. O‘zbekiston Respublikasida ma’lumotlarni shifrlash algoritmi sifatida O‘zMSt 270:2024 standarti, xeshlash funksiya algoritmi sifatida O‘zMSt 285:2024 standarti foydalanilib kelinmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda yengil vaznli kriptografik algoritmlarni ishlab chiqish, ularni kriptotahlil usullariga baholash masalalari bir qator xorijiy olimlar, jumladan: A.Bogdanov, C.Dobraunig, J.Daemen, V.Rijmen, B.Guido, G.Bertoni, R.Beaulieu, A.E.Jukov, A.Luykx, N.Mouha, G.Tsudik, J.Guo, P.Duong, X.Huang, L.Yan, S.Banik, W.Zhang, D.Goudarzi, A.Canteaut, D.Bellizia, Z.Gong, C.Beierle, A.Thakor, E.Adreeva, Z.Bao, B.Bilgin, M.Hell, H.Wu va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Axborotni himoyalashning kriptografik usullari, jumladan, kriptografik algoritmlarni ishlab chiqish, kriptotahlil usuliga baholash, apparat va dasturiy ko‘rinishlarda amalga oshirish masalalari bilan bog‘liq tadqiqotlar J.Daemen, V.Rijmen, B.Guido, G.Bertoni, B.Shnayer, K.McKay, E.K.Shannon, K.Nyberg, N.T.Courtois, J.Kelsey, K.Tsantikidou, M.Dansarie, M.Matsui, E.Ishukova, L.Babenko, P.Xasanov, M.Aripov, S.K.Ganiyev, M.M.Karimov, B.F.Abdurakhimov, D.E.Akbarov, G.U.Jurayev, A.V.Kabulov, D.M.Kuryazov, G.N.Tuychiyev, X.P.Xasanov, O.P.Axmedova, A.B.Sattorov, B.Axmedov, I.M.Boyquziyev, O.M.Allanov, R.H.Alaev, M.A.Berdimurodov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Shu bilan birga keng tarqalgan yengil vaznli kriptografik algoritmlardagi chiziqsiz akslantirishlarni kengaytirilgan kriptografik talablarga baholash, yon-kanal (side-channel) hujumiga bardoshli, apparat amalga oshirishga qulay yangi chiziqsiz akslantirishlarni ishlab chiqish, yengil vaznli simmetrik kriptografik algoritmlarni, psevdotasodifiy sonlar generatorini yaratish yo‘nalishlarida yetarli darajada ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 598661-EPP-12018-1-RO-EPPKA2-CBHE-JP “Developing Services for Individuals with Disabilities–DECIDE” (2019-2022) va 10/18-F “Antivirus dasturiy vositalarini yaratish va zararli kodlarni o‘rganish bo‘yicha “Antivirusli himoya” ilmiy laboratoriyasini tashkil etish asosida tizimli qo‘llab-quvvatlash” (2018-2020) mavzusidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi imkoniyati cheklangan qurilmalarda axborot xavfsizligini ta’minlash (konfidensiallik, yaxlitlik va manba autentifikatsiyasi) hamda psevdotasodifiy qiymatlarni generatsiyalash imkonini beruvchi kriptografik usul va algoritmlarni takomillashtirish, ishlab chiqish va kriptotahlil usullariga baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy yengil vaznli kriptografik algoritmlarda foydalanilgan turli o‘lchamli S jadvallarni kengaytirilgan umumiy kriptografik talablarga baholash;

yengil vaznli kriptografik algoritmlarda foydalanish uchun turli o‘lchamli S jadvallarni hosil qilish usulini takomillashtirish;

yengil vaznli autentifikatsiyalangan shifrlash algoritmlarini ishlab chiqish;

yengil vaznli kalitli, kalitsiz xesh funksiyalarni qurish usuli va algoritmlarini ishlab chiqish;

yengil vaznli psevdotasodifiy sonlar generatori algoritmini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan yengil vaznli kriptografik algoritmlarning kriptotahlilini amalga oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida imkoniyati cheklangan qurilmalarda axborotni himoyalash jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini imkoniyati cheklangan qurilmalarda axborotni himoyalashning kriptografik usul va algoritmlarini tadqiqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida axborot nazariyasi, ehtimollar nazariyasi, to‘plamlar nazariyasi, diskret matematika, sonlar nazariyasi, kriptografik algoritmlarni qurish, kriptografik algoritmlarni xavfsizlik darajalarini baholash, obyektga yo‘naltirilgan dasturlash asosida kriptografik algoritmlarni dasturiy vosita ko‘rinishida amalga oshirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mavjud yengil vaznli kriptografik algoritmlarni xavfsizlik nuqtai nazaridan tahlil qilish maqsadida kengaytirilgan umumiy kriptografik talablarga asoslangan holda mavjud yengil vaznli kriptografik algoritmlarda qo‘llanilgan turli o‘lchamli chiziqsiz akslantirishlar baholanilgan;

xavfsizlik va apparat amalga oshirish nuqtai nazaridan yuqori ko‘rsatkichlarga ega turli o‘lchamli chiziqsiz akslantirishlarni hosil qilish maqsadida kengaytirilgan sinus va tent funksiyalaridan kombinatsion tarzda foydalanish orqali S jadvallarni generatsiyalash usuli takomillashtirilgan hamda affin akslantirishi yordamida chiziqsiz sath xususiyatlarini yaxshilash orqali S jadvallarni generatsiyalash algoritmi ishlab chiqilgan;

ma’lumotlarni konfidensialligini, yaxlitligini ta’minlashga, buyumlar interneti qurilmalarida amalga oshirishga imkon beruvchi, turli uzunlikdagi kalit va blok uzunliklarini madadlovchi yengil vaznli kriptografik algoritmlar ishlab chiqilgan;

ma’lumotlarni yaxlitligini, manba autentifikatsiyasini ta’minlashga, buyumlar interneti qurilmalarida amalga oshirishga imkon beruvchi, o‘zgaruvchan hamda o‘zgarmas uzunlikdagi xesh qiymatlarni hosil qilishni madadlovchi yengil vaznli kriptografik usul va algoritmlar ishlab chiqilgan;

yagona kiritilgan qiymatlardan yetarli uzunlikdagi psevdotasodifiy ketma-ketliklarni hosil qilishga, buyumlar interneti qurilmalarida amalga oshirishga, mukammal xavfsizlikni ta’minlashga imkon beruvchi yengil vaznli kriptografik algoritm ishlab chiqilgan;

qurilish arxitekturasi va raund akslantirishlarining kriptobardoshlik darajasini aniqlashga imkon beruvchi umumiy kriptotahlil usullar, chiziqli, algebraik va integral kriptotahlil usullari yordamida ishlab chiqilgan yengil vaznli kriptografik algoritmlar baholanilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

keng tarqalgan yengil vaznli kriptografik algoritmlardagi turli o‘lchamli chiziqsiz akslantirishlarni kengaytirilgan kriptografik talablar asosida baholovchi dasturiy vosita ishlab chiqilgan;

kengaytirilgan sinus va tent xaotik akslantirishlaridan kombinatsion tarzda foydalanishga asoslangan turli o‘lchamli S jadvallarni hosil qiluvchi dasturiy vosita ishlab chiqilgan;

affin akslantirishini kriptografik algoritmning chiziqsiz sathi xususiyatlariga ta’sirini o‘rganish asosida yon-kanal hujumlariga bardoshli, apparat amalga oshirishga qulay S jadvallarni hosil qiluvchi dasturiy vosita ishlab chiqilgan;

turli holat uzunlikli raund akslantirishlariga ega sponge konstruksiyasi asosida ma’lumotlarni autentifikatsiyalangan shifrlash imkoniyatli kriptografik algoritmlarning dasturiy vositalari ishlab chiqilgan;

turli holat uzunlikli raund akslantirishlariga ega sponge konstruksiyasi asosida ma’lumotlarni kalitli va kalitsiz xeshlab, o‘zgaruvchan hamda o‘zgarmas uzunlikdagi xesh qiymatlarni hosil qiluvchi kriptografik algoritmlarning dasturiy vositalari ishlab chiqilgan;

sponge konstruksiyasi asosida mukammal xavfsizlikni ta’minlovchi psevdotasodifiy sonlarni hosil qilish algoritmining dasturiy vositasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan yengil vaznli kriptografik algoritmlar qurilish xususiyatiga ko‘ra umumiy kriptotahlil usullariga, raund akslantirishlari xususiyatiga ko‘ra chiziqli, algebraik va integral kriptotahlil usullariga baholash orqali kriptografik bardoshliklari isbot qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi taklif etilgan algoritmlarga nisbatan qat’iy matematik tadqiqotlar o‘tkazilib, hisoblash tajribalari natijalarini umumqabul qilingan mezonlar asosida taqqoslash orqali isbotlangan va sonli tadqiqotlar natijalari bilan tasdiqlangan. Kengaytirilgan kriptografik talablarga baholash, S jadvallarni hosil qilish algoritmlarini to‘g‘ri ishlashi, taklif etilgan shifrlash, xeshlash va psevdotasodify sonlar generatori algoritmlarini tezliklari va xotira hajmlari haqidagi ma’lumotlar ishlab chiqilgan tegishli dasturiy vositalar bilan tekshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sifatida chiziqsiz akslantirishlarni hosil qilish usuli, shuningdek, sponge konstruksiyasi uchun raund akslantirishlarini hosil qilish usuli va u asosida ishlab chiqilgan yengil vaznli kriptografik algoritmlar xizmat qiladi.

Tadqiqotdan olingan natijalarning amaliy ahamiyati esa, chiziqsiz akslantirishlarni baholash uchun tanlab olingan kengaytirilgan kriptografik talablardan Respublikada amalga oshiriladigan tanlovlarda algoritmlarni tanlab olishdagi tegishli uslub sifatida, bardoshligi yuqori, tezkor va turli holat uzunliklariga ega raund akslantirishlaridan esa yangi yengil vaznli kriptografik algoritmlarni qurishda foydalanilishi mumkinligi bilan begilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buyumlar Interneti tizimida axborotni kriptografik himoyalash usullari va algoritmlari mavzusidagi tadqiqot ishida olingan ilmiy natijalar asosida:

mavjud yengil vaznli kriptografik algoritmlarni xavfsizlik nuqtai nazaridan tahlil qilish maqsadida kengaytirilgan umumiy kriptografik talablarga asoslangan holda baholanilgan chiziqsiz akslantirishlarni o‘z ichiga olgan yengil vaznli kriptografik algoritmlarning dasturiy vositalari “O‘zbektelekom” AK Jabuniy-G‘arbiy filiali ishchi muhitida axborotni kriptografik himoyalash maqsadida tadbiq etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 17-sentabrdagi 33-8/6636-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida ma’lumotni konfidensialligini va yaxlitligini ta’minlovchi AEAD_P320 algoritmi qolganlariga nisbatan eng yuqori (o‘rtacha 345.62 MB/s) tezlikni, AEAD_P384 algoritmiga nisbatan 1.02 marta yuqori tezlikni qayd etgan.

xavfsizlik va apparat amalga oshirish nuqtai nazaridan yuqori ko‘rsatkichlarga ega turli o‘lchamli chiziqsiz akslantirishlarni hosil qilish maqsadida kengaytirilgan sinus va tent funksiyalaridan kombinatsion tarzda foydalanish orqali takomillashtirilgan usul yordamida hosil qilingan S jadvallarni o‘z ichiga olgan yengil vaznli kriptografik algoritmlarning dasturiy vositalari “Kiberxavfsizlik markazi” DUK test laboratoriyasida ma’lumotlarni himoyalash maqsadida joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 17-sentabrdagi 33-8/6636-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida psevdotasodifiy sonlar generatorining dasturiy vositasi kriptografik algoritmlar uchun talab etilgan psevdotasodifiy qiymatlarni o‘rtacha 53.932 MB/s tezlik bilan generatsiyalash imkonini bergan.

ma’lumotlarni konfidensialligini, yaxlitligini ta’minlashga, buyumlar interneti qurilmalarida amalga oshirishga imkon beruvchi, turli uzunlikdagi kalit va blok uzunliklarini madadlovchi yengil vaznli kriptografik algoritmlarga asoslangan dasturiy vositalar “O‘zkomnazorat” inspeksiyasi Samarqand viloyati hududiy shu’basi faoliyatida resurslari cheklangan qurilmalarda axborotni himoyalash maqsadida tadbiq etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 17-sentabrdagi 33-8/6636-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida ma’lumotlarni konfidensialligini, yaxlitligini ta’minlovchi AEAD_P320 algoritmi o‘rtacha 17.31 Kbayt ROM va 0.90 Kbayt RAM xotira hajmini talab etib, 32 bitli mikrokontrollerlarda ham samarali amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatgan, bunda barcha algoritmlar mikrokontrollerning ko‘pi bilan 3% ROM va 2% RAM xotira qismini band qilish imkonini bergan.

ma’lumotlarni yaxlitligini, manba autentifikatsiyasini ta’minlashga, buyumlar interneti qurilmalarida amalga oshirishga imkon beruvchi, o‘zgaruvchan hamda o‘zgarmas uzunlikdagi xesh qiymatlarni hosil qilishni madadlovchi yengil vaznli kriptografik xesh funksiya algoritmi asosida ishlab chiqilgan dasturiy vositalar “UNICON.UZ” - Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining sinov laboratoriyasida Arduino Mega platasida turli uzunlikdagi ma’lumotlarni xeshlash uchun tadbiq etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 17-sentabrdagi 33-8/6636-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida barcha algoritmlar 512 baytli ma’lumotni xeshlash uchun mikrokontrollerning 3% gacha ROM, 5% gacha RAM xotirasini talab etib, buning uchun 0.2 sekund vaqt, 20.5 mJ energiya sarflanishiga imkon bergan.

yagona kiritilgan qiymatlardan yetarli uzunlikdagi psevdotasodifiy ketma-ketliklarni hosil qilishga, buyumlar interneti qurilmalarida amalga oshirishga, mukammal xavfsizlikni ta’minlashga imkon beruvchi yengil vaznli kriptografik algoritm asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita “Intsoft-servis” MChJda Arduino Leonardo platasida turli uzunlikdagi psevdotasodifiy qiymatlarni generatsiyalash maqsadida joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 17-sentabrdagi 33-8/6636-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida psevdotasodifiy sonlarni generatsiyalash algoritmi 8 bitli mikrokontrollerda 34% ROM xotira hajmi va 21% RAM xotira hajmiga ega bo‘lib, 0.04 sekund vaqt va 2.42 mJ energiya energiya sarfi bilan 256 baytli qiymatni hosil qilishga imkon bergan.

qurilish arxitekturasi va raund akslantirishlarining kriptobardoshlik darajasini aniqlashga imkon beruvchi umumiy kriptotahlil usullar, chiziqli, algebraik va integral kriptotahlil usullari yordamida baholangan yengil vaznli kriptografik algoritmlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy vositalar “UNICON.UZ” - Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining sinov laboratoriyasida joriy etildi (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 17-sentabrdagi 33-8/6636-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida taklif etilgan algoritmlar chiziqli, algebraik va integral kriptotahlil usullariga bardoshlikni ta’minlab, 8 bitli mikrokontrollerlarda ham kichik xotira hajmini talab etgan holda, amalga oshirishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 15 ta maqola, shulardan, 6 tasi xorijiy va 9 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan hamda EHM uchun yaratilgan 4 ta dasturiy vositalarni qaydlash guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 174 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati keltirilib, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan. Ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amalga tatbiq etish ro‘yxati taqdim qilingan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Buyumlar interneti tizimida axborotni kriptografik himoyalashdagi muammolar”** deb nomlanuvchi birinchi bobi buyumlar interneti tizimlarida foydalaniluvchi kriptografik algoritmlarning xususiyatlari, yengil vaznli kriptografik algoritmlarning tahlil natijalari, keng tarqalgan yengil vaznli

kriptografik algoritmlarda foydalanilgan chiziqsiz akslantirishlarni kengaytirilgan umumiy kriptografik talablarga baholash natijalari bayon qilingan.

IoT ssenariysida xavfsizlik muhim ahamiyatga ega. Bunda xavfsizlik masalalari turli darajalarda, texnologik muammolardan tortib, undan yuqori masalalar, masalan, smart o‘yinchoqlarda shaxsiylik va ishonchlikni ta’minlash uchun qo‘llaniladi. Xavfsizlik muammolari smart obyektlarning tabiati va standart protokollaridan kelib chiqadi. IoT muhitini tashkil etish uchun turli arxitekturalar taklif etilgan bo‘lib, ular orasida 1) ilova va xizmat vazifalari amalga oshiriluvchi ilova sathi (Application layer), 2) tarmoq/ uzatish sathi (Network/ Transmission layer) va 3) chetki nuqtalar (sensorlar)ga aloqador bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash/ chetki sathlaridan (Perception/ Edge layer) iborat bo‘lgan 3 qatlamli sath muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur arxitekturaning chetki va tarmoq sathlarida axborotning konfidensialligini, yaxlitligini, manba autentifikatsiyasini ta’minlashda va psevdotasodifiy sonlarni hosil qilishda kriptografik algoritmlar muhim ahamiyat kasb etadi.

IoT qurilmalari odatda cheklangan quvvat manbalari va kichik hisoblash imkoniyatiga ega bo‘lgani bois, mazkur manbalardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi (1-jadval). Xususan, xavfsizlik vositalaridan, kriptografik himoya vositalaridan foydalanganda ham bunga etibor berish kerak bo‘ladi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari esa mavjud ananaviy kriptografik algoritmlarni IoT qurilmalari uchun o‘rinli emasligini ko‘rsatmoqda. Bu esa cheklangan quvvat manbalari va kichik hisoblash imkoniyatiga ega qurilmalar uchun mos kriptografik algoritmlarni ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

1-jadval

RFC7228 bo‘yicha imkoniyati cheklangan qurilmalarning sinflari (KiB = 1024 bayt, Random Access Memory – RAM, Read Only Memory - ROM)

Nomi	Ma’lumot hajmi (RAM)	Kod o‘lchami (ROM, Flesh xotira)
Sinf 0, C0	≪10 KiB	≪100 KiB
Sinf 1, C1	~10 KiB	~100 KiB
Sinf 2, C2	~50 KiB	~250 KiB

Mazkur qurilmalar uchun mo‘ljallangan kriptografik algoritmlarga nisbatan “yengil vaznli (lightweight)” sifati ishlatilib, bu algoritmning xavfsizlik darajasini saqlab qolgan holda, amalga oshirishda kam quvvat sarfini va kichik hisoblash imkoniyatini talab etishi bilan xarakterlanadi.

IoT qurilmalari uchun hozirgacha ko‘plab kriptografik algoritmlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning ba’zilari o‘tkazilgan tanlovlar natijasida davlatlarning milliy standarti yoki xalqaro miqiyosidagi standart sifatida qabul qilingan. Bularga 2004-2008-yillarda apparat va dasturiy amalga oshirishga mo‘ljallangan oqimli shifrlarni tanlab olish uchun tashkil etilgan eSTREAM loyihasini, turli muhitlarda foydalanish uchun aloqador ma’lumot bilan autentifikatsiyalovchi shifrlash (Authenticated Encryption with Associated Data, AEAD) turidagi algoritmlarni tanlab olish uchun 2012-2019-yillar oralig‘ida xalqaro kriptologik tadqiqotlar jamiyati tomonidan o‘tkazilgan CAESAR loyihasini, NIST tomonidan 2015-2023-yillar oralig‘ida o‘tkazilgan NIST LWC tanlovini, Yaponiya elektron hukumat tizimlarida foydalanilgan kriptografik mexanizmlarning xavfsizligini

baholash va monitoringni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan CRYPTREC loyihasini hamda ISO/IEC (International Organization of Standardization/ International Electrotechnical Commission) 29192 (Information technology - Security techniques - Lightweight cryptography) seriyali standartini misol keltirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan tanlovlarda, loyihalarda va standartlarda keltirilgan yengil vaznli kriptografik algoritmlar shifrlash, AEAD turidagi shifrlash, xabarlarni autentifikatsiyalash kodlari (Message Authentication Code, MAC), xesh funksiyalar kabi algoritmlar guruhlariga ajratilgan holda qurilish asosi, parametrlari, apparat-dasturiy amalga oshirish natijalari, kriptotahlil usullariga baholash natijalari kabi xususiyatlari bo‘yicha tahlil qilindi. Xususan, 2-jadvalda yengil vaznli AEAD shifrlash algoritmlari va ularning xususiyatlari keltirilgan. Tahlil natijalari mavjud yengil vaznli kriptografik algoritmlarni apparat-dasturiy amalga oshirish va kriptotahlil usullariga, xususan yon-kanal (side-channel) hujumlariga bardoshligi bilan bog‘liq kamchiliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Barcha simmetrik kriptografik algoritmlarda bardoshlikni ta’minlashda chiziqsiz akslantirishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli chiziqli akslantirishlarni foydalanishdan oldin umumiy kriptografik talablarga baholash, uni kriptotahlil usullariga bardoshli bo‘lishini ta’minlaydi.

2-jadval

Yengil vaznli AEAD shifrlash algoritmlari

Nomi	Turi	Asos akslantirish	Holati (bit)	Kalit (bit)	Rate/ blok uzunligi (bit)	Teg (bit)	Xavfsizlik (bit)
Ascon	Sponge	**Ascop-p**	**320**	**128**	**64**	**128**	**128**
		Ascon-p	320	128	128	128	128
Elephant	Sponge	**Spongent**	**160**	**128**	**160**	**64**	**112**
		Spongent	176	128	176	64	127
		Keccak	200	128	176	128	127
GIFT-COFB	Blokli	**GIFT-128**	**192**	**128**	**128**	**128**	**128**
Grain-128AEAD	Oqimli	**Grain-128a**	**256**	**128**	**1**	**64**	**128**
ISAP	Sponge	Keccak	400	128	144	128	128
		Ascop-p	**320**	**128**	**64**	**128**	**128**
		Keccak	400	128	144	128	128
		Ascop-p	320	128	64	128	128
PHOTON-Beetle	Sponge	**PHOTON256**	**256**	**128**	**128**	**256**	**121**
		PHOTON256	256	128	32	256	128
Romulus	Blokli	**Skinny-128-384**	**384**	**128**	**128**	**128**	**128**
		Skinny-128-384	384	128	128	128	128
		Skinny-128-384	384	128	128	128	128
SPARKLE	Sponge	**SPARKLE**	**256**	**128**	**128**	**128**	**120**
		SPARKLE	384	128	256	128	120
		SPARKLE	384	192	192	192	184
		SPARKLE	512	256	256	256	248
TinyJambu	Sponge	**TinyJambu**	**128**	**128**	**32**	**64**	**120**
Xoodyak	Sponge	**Xoodoo**	**384**	**128**	**352**	**128**	**128**
AES-GCM	Blokli	**AES**	**128**	**128, 256**	**128**	96, 104, 112,120, **128**	64 **128**

Izoh: Parametrlari qalin qora rangda berilganlari mualliflar tomonidan taqdim etilgan asosiy variantlar.

Umumiy kriptografik talablar asosan ananaviy chiziqsiz akslantirishlarni baholashga mo‘ljallangan bo‘lib, yengil vaznli kriptografik algoritmlardagi

chiziqsiz akslantirishlarni baholashda qo‘shimcha kriteriylarni kiritish zarur hisoblanadi. Shu sababli yengil vaznli kriptografik algoritmlardagi chiziqsiz akslantirishlarni baholashda quyidagi kriteriylardan iborat bo‘lgan kengaytirilgan umumiy kriptografik talablardan foydalanildi:

- umumiy kriteriylar: muvozanatlashganlik va muntazamlik, qat’iy lavin samaradorlik darajasi (Strict Avalanche Criterion, SAC), bitlar bog‘liqsizligi mezonini (Bit Independence Criterion, BIC), o‘zgarmas (Fixed point, FP) va teskari o‘zgarmas nuqtalar (Opposed fixed point, OFP);
- chiziqli kriptotahlilga bardoshlikni ko‘rsatuvchi kriteriylar: chiziqsizlik (Nonlinearity, NL), korrelyatsion immunitetga (Correlation immunity, CI), chiziqli yaqinlashish ehtimoli (Linear Approximation Probability, LP), chiziqli tarmoqlanishlar soni (Linear branch number, LBN);
- differensial kriptotahlilga bardoshlikni ko‘rsatuvchi kriteriylar: tarqalish mezoni (Propagation Criteria, PC), differensial yaqinlashish ehtimoli (Differential Approximation Probability, DP), differensial tarmoqlanishlar soni (Differential branch number, DBN);
- algebraik kriptotahlilga bardoshlikni ko‘rsatuvchi kriteriylar: algebraik immunitetlik (Algebraic immunity, AI) darajasi va talab etiluvchi tenglamalar soni (TS);
- differensial quvvat tahlili (Differential power analysis, DPA) hujumiga bardoshlikni ko‘rsatuvchi kriteriylar: shaffoflik chegarasi (Transparency order, TO), signal shovqin nisbati (Signal-to-Noise Ratio, SNR), chalkashish koeffitsiyenti dispersiyasi (Confusion coefficient variance, CCV);
- apparat amalga oshirishdagi samaradorlikni ko‘rsatuvchi kriteriy: mantiqiy elementlar (ME) soni.

Tanlab olingan kriteriylar asosida turli o‘lchamdagi S jadvallarni baholash natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Olingan tahlil natijalari yengil vanzli kriptografik simmetrik algoritmlarda chiziqsiz akslantirish sifatida kichik o‘lchamli S jadvallardan foydalanilganini, ularning qator kriptotahlil hujumlariga, xususan, yon-kanal hujumlariga nisbatan bardoshligi yuqori emasligini, apparat amalga oshirishda yuqori samaradorlikni qayt etmasligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Yengil vaznli simmetrik kriptotizimlar uchun kriptobardoshli akslantirishlar”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida yengil vaznli kriptografik algoritmlarni qurishda sponge konstruksiyasining ahamiyati haqidagi ma’lumotlar, yengil vaznli kriptografik algoritmlar uchun turli uzunlikdagi chiziqsiz akslantirishlarni qurish usuli va algoritmi, turli holat uzunliklari uchun raund akslantirishini qurish tartibi hamda ulardan olingan natijalar tahlili keltirilgan.

Xususan, 2.1-paragrafda yengil vaznli kriptografik algoritmlarni qurishda sponge konstruksiyasining ahamiyati asoslangan. Yengil vaznli kriptografik algoritmlarni qurishda asosan sponge (shimgich) konstruksiyasidan keng foydalanilganini 2-jadvaldan ko‘rish mumkin. *Sponge konstruktsiyasi* – bu o‘zgaruvchan uzunlikdagi kiruvchi xabardan istalgan uzunlikdagi chiqishni hosil qilish uchun ishlatiladigan oddiy iterativ (bosqichli) konstruksiya bo‘lib, u o‘zgarmas uzunlikdagi b bitlar ustida ishlaydigan akslantirish (transformation) yoki

o‘rin almashtirish (permutation) funksiyasi f ga asoslanadi. Bu yerda, b – umumiy holat (state) hajmi deb ataladi (1-rasm). Sponge konstruktsiyasi $b = r + c$ bitli holatda ishlaydi, bu yerda: r - (kiritiladigan/ chiqariladigan) ma’lumot miqdori (bitrate), c - sig‘im (capacity), xavfsizlikni ta’minlaydigan yashirin qism.

3-jadval

Turli o‘lchamli S jadvallarning kengaytirilgan umumiy kriptografik talablar bo‘yicha baholash natijalari

№	Manba	Umumiy					Chiziqli				Differensiyal			Alg	DPA			Ama
		B +	FP ↓	OFP ↓	SAC (=0.5)	BIC-SAC (=0.5)	NL ↑	LP ↓	CI ↑	LBN ↑	DP ↓	PC ↑	DBN ↑	AI, TS ↑	TO ↓	CCV ↑	SNR ↓	ME ↓
4x4 S jadvallar																		
1.	Present	+	0	1	0.625	0.562	4	0.25	0,0,0,1	2	0.250	0	3	2, 21	3.600	0.657	2.128	16
2.	FEATHER	+	1	0	0.562	0.531	4	0.25	0,0,0,0	2	0.375	0	2	2, 21	3.533	0.457	2.398	23
3.	ARSHAD (8)	+	0	4	0.500	0.520	4	0.25	0,0,0,0	2	0.375	0	2	2, 21	3.666	0.382	2.259	20
4.	IVLBC	+	4	0	0.546	0.531	4	0.25	0,0,0,0	2	0.250	0	2	2, 21	3.666	0.257	2.806	8
5.	DBST (1)	+	1	0	0.640	0.468	4	0.25	0,0,1,1	2	0.250	0	2	2, 21	3.600	0.307	2.685	14
6.	ELEPHANT	+	0	1	0.656	0.520	4	0.25	0,0,0,1	2	0.250	0	3	2, 21	3.266	0.457	2.398	15
7.	GIFT	+	0	1	0.625	0.541	4	0.25	0,0,1,1	2	0.375	0	2	2, 21	3.600	0.457	2.398	15
8.	KNOT	+	0	2	0.671	0.479	4	0.25	1,1,0,0	2	0.250	0	2	2, 21	3.333	0.607	2.187	16
9.	PYJAMASK	+	0	2	0.593	0.520	4	0.25	1,0,0,0	2	0.250	0	2	2, 21	3.466	0.607	2.187	16
10.	SATURNIN	+	1	0	0.531	0.500	4	0.25	0,0,0,0	2	0.250	0	2	2, 21	3.533	0.357	2.578	16
11.	SPOOK	+	1	2	0.515	0.562	4	0.25	0,0,0,0	2	0.250	0	2	2, 21	3.666	0.307	2.685	8
12.	KLEIN	+	0	0	0.593	0.500	4	0.25	0,0,0,0	2	0.250	0	2	2, 21	3.466	1.207	1.691	23
13.	RECTANGLE	+	0	0	0.671	0.479	4	0.25	0,0,1,1	2	0.250	0	2	2, 21	3.400	0.607	2.187	17
14.	PRIDE	+	4	0	0.500	0.541	4	0.25	0,0,0,0	2	0.250	0	2	2, 21	3.533	0.307	2.685	8
15.	CRAFT	+	4	2	0.406	0.562	4	0.25	0,0,0,0	2	0.250	0	2	2, 21	3.466	1.257	1.663	18
16.	Duong	+	0	0	0.500	0.500	4	0.25	0,0,1,0	2	0.250	0	2	2, 21	3.400	1.357	1.612	19
17.	Photon	+	0	1	0.625	0.562	4	0.25	0,0,0,1	2	0.250	0	3	2, 21	3.600	0.657	2.128	16
18.	Magma 0	+	1	0	0.515	0.520	4	0.25	0,0,0,0	2	0.25	0	2	2, 21	3.533	0.357	2.578	21
5x5 S jadvallar																		
19.	Ascon	+	0	0	0.619	0.520	8	0.25	1,1,1,1,1	3	0.250	0	3	2, 25	4.322	0.501	3.015	20
20.	PRIMATE	+	0	2	0.540	0.510	12	0.125	0,0,0,0,0	2	0.062	0	2	2, 25	4.837	0.308	3.535	27
21.	ICEPOLE	+	0	2	0.425	0.550	8	0.25	0,0,0,0,0	2	0.250	0	2	2, 25	4.516	0.190	4.025	30
22.	SYCON	+	0	0	0.620	0.520	8	0.25	1,1,1,1,1	3	0.250	0	3	2, 25	4.258	0.501	3.015	20
23.	Duong	+	0	0	0.500	0.500	10	0.25	0,0,0,0,0	2	0.187	0	2	2, 25	4.580	1.275	2.085	41
24.	Thakor	+	0	1	0.540	0.507	8.4	0.25	0,0,0,0,0	2	0.250	0	2	2, 25	4.596	0.347	3.408	42
25.	Irfan	+	0	0	0.540	0.525	8.8	0.25	0,0,0,0,0	2	0.250	0	2	2, 25	4.532	0.259	3.713	40
6x6 S jadvallar																		
26.	Yan	+	0	2	0.503	0.754	24	0.125	1,1,1,0,0,0	2	0.062	0	2	2, 28	5.452	0.402	4.086	49
27.	Kim	+	2	0	0.576	0.756	24	0.125	1,1,1,1,1,1	3	0.062	0	3	2, 22	5.670	0.339	4.341	44
28.	Sarkar 1	+	4	2	0.569	0.775	24	0.125	1,1,1,1,1,1	3	0.062	0	3	2, 28	5.714	0.402	4.086	39
29.	Sarkar 2	+	2	0	0.565	0.764	24	0.125	1,1,1,1,1,1	3	0.062	0	3	2, 28	5.595	0.342	4.328	72
30.	Bilgin	+	0	1	0.508	0.764	24	0.125	0,0,0,0,0,0	2	0.031	0	2	2, 22	5.730	0.238	4.879	73
8x8 S jadvallar																		
31.	Abdurazzokov	+	0	1	0.494	0.497	105.0	0.132	0,0,0,0,0,0,0,0	2	0.039	0	2	3, 441	7.801	0.118	9.408	-
32.	AES	+	0	0	0.504	0.504	112.0	0.062	0,0,0,0,0,0,0,0	2	0.015	0	2	2, 39	7.860	0.111	9.599	-
33.	Kuznechik	+	0	0	0.512	0.494	106.5	0.109	0,0,0,0,0,0,0,0	2	0.031	0	2	3, 441	7.835	0.112	9.570	-
34.	Romulus	+	1	0	0.316	0.431	64.0	0.250	0,0,0,0,0,0,0,0	2	0.250	0	2	2, 34	7.174	0.340	6.312	-
35.	Manzoor	+	2	1	0.503	0.504	110	0.132	0,0,0,0,0,0,0,0	2	0.039	0	2	3, 441	7.818	0.098	9.976	-
36.	Alqahtani	+	1	2	0.505	0.502	102.7	0.132	0,0,0,0,0,0,0,0	2	0.039	0	2	3, 441	7.808	0.124	9.251	-

Sponge konstruktsiyasi ikkita bosqichda ishlaydi:

1. Singdirish (Absorbing) bosqichi: kiruvchi xabar r bitli bloklarga bo‘linadi va maxsus to‘ldirish (padding) usuli bilan blok uzunligiga karrali bo‘lgunga qadar to‘ldiriladi. Har bir blok holatning dastlabki r bitiga XOR amalida qo‘shiladi.

So‘ngra kiruvchi sifatida qabul qilingan holat qiymati uchun f funksiyasi qo‘llaniladi. Barcha bloklar kiritilgach, zichlash (squeezing) bosqichiga o‘tiladi.



1-rasm. Sponge konstruksiyasi

2. Zichlash (Squeezing) bosqichi: holatning dastlabki r biti chiqarish bloklari sifatida olinadi. Har bir chiqarishdan so‘ng f funksiya yana qo‘llaniladi. Foydalanuvchi istalgan uzunlikdagi chiqishni olishi mumkin. Holatning oxirgi c bitlariga hech qachon kirish bloklari tomonidan bevosita ta’sir qilinmaydi va zichlash bosqichida hech qachon chiqarilmaydi.

Ma’lumotlarni to‘ldirish qoidasi. Sponge konstruksiyasi uchun ma’lumotlarni to‘ldirishning ikki usulidan: sodda (simple) va ko‘p miqdorli (multi-rate), foydalaniladi. *Sodda to‘ldirish*, $pad10^*$ kabi belgilanib, bitta 1 bit qo‘shiladi, so‘ngra natijaning uzunligi blok uzunligining ko‘paytmasiga teng bo‘lishi uchun kerakli eng kam sondagi 0 bitlar qo‘shiladi. *Ko‘p miqdorli to‘ldirish*, $pad10^*1$ kabi belgilanib, bitta 1 bit qo‘shiladi, so‘ngra natijaning uzunligi blok uzunligining ko‘paytmasiga teng bo‘lishi uchun kerakli eng kam sondagi 0 bitlari qo‘shiladi, undan keyin yana bitta 1 bit qo‘shiladi.

Sponge konstruksiyasi *umumiy hujumlarga* nisbatan $c/2$ xavfsizlik darajasini ta’minlaydi. Xususan, kolliziyalar, ikkilamchi asl obrazni aniqlash, farqlash, soxtalashtirish va uzunlikni kengaytirish hujumiga bardoshlik $2^{c/2}$ ga; asl obrazni aniqlash $\min(2^n, 2^c)$ ga; va kalitni tiklash $\min(2^{c/2}, 2^c, 2^k)$ va o‘rtada uchrashish kalitli rejimlar uchun $\min(2^{c/2}, 2^{k/2})$ yoki kalitsiz rejimlarda asl obrazni aniqlash uchun $\min(2^n, 2^{c/2})$ xavfsizlik darajasi ta’minlanadi.

Asosiy hujumlar esa farqlashdagi imkoniyatga bog‘liq bo‘lib, agar raund akslantirishi zaif bo‘lsa $2^{c/2}$ chegara buziladi. Kalit uzunligi (k) kalitni tiklashga ta’sir qilib, kolliziyalar, soxtalashtirish yoki farqlash hujumlariga ta’sir qilmaydi (shu sababli bu yerda 2^k mos kelmaydi, agar kalitni tiklash oldinroq amalga oshirilmasa). Germetik sponge konstruksiyasi f akslantirishni yuqori diffuziyali, chiziqsizlik va farqlovchilarsiz loyihalash imkonini beradi va xavfsizlikning umumiy chegaralarga mos kelishini ta’minlaydi.

